

UDK- 37.016:808.5

BADIIY ADABIYOT – NOTIQLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIY-TARBIYAVIY VOSITA SIFATIDA

Teshabayeva Mahliyo Nurillo qizi

NamDPI Mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: mahliyoteshabayeva0608@gmail.com

Telefon raqami: +998 90 994-54-91

ORCID: 0009-0001-8521-5240

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotning nutq madaniyati va notiqlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'рни hamda ahamiyati yoritilgan. Maqolada adabiy asarlarni o'qish jarayonida o'quvchi va talabalar nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot notiqlikni rivojlantiruvchi, so'z boyligini kengaytiruvchi va tafakkurni chuqurlashtiruvchi eng samarali vositalardan biridir.

Kalit so'zlar: notiqlik madaniyati, badiiy adabiyot, nutq rivoji, nutqiy kompetensiya, ifoda uslubi.

ЛИТЕРАТУРА КАК СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ КУЛЬТУРЫ ОРАТОРСКОГО ИСКУССТВА

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение художественной литературы в формировании речевой культуры личности и навыков ораторского мастерства. В работе анализируются педагогические возможности развития речевой культуры учащихся и студентов в процессе чтения художественных произведений. Результаты исследования показывают, что художественная литература является одним из наиболее эффективных средств развития ораторского мастерства, расширения словарного запаса и углубления мышления.

Ключевые слова: культура речи, художественная литература, речевое развитие, речевая компетенция, выразительный стиль.

LITERATURE AS AN EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL MEANS IN DEVELOPING THE CULTURE OF ORATORY CULTURE

Annotation: This article examines the role and significance of fiction in the formation of an individual's speech culture and oratory skills. The study analyzes the pedagogical possibilities of developing students' speech culture through the process of reading literary works. The research results show that fiction is one of the most effective means for enhancing oratory, expanding vocabulary, and deepening thinking.

Keywords: oratory culture, fiction, speech development, speech competence, expressive style.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagog shaxsining nutq madaniyatini yuksaltirish masalasi muhim o'rin egallaydi. Chunki nutq madaniyati – bu faqat

soʻzlash malakasi emas, balki fikrni mantiqan izchil, estetik meʼyor va mazmunan taʼsirchan ifodalash sanʼatidir. Notiqlik esa shaxsning oʻz fikrini tinglovchiga aniq va toʻgʻri yetkaza olish, auditoriyani jalb etish hamda muloqotda madaniy muvozanatni saqlash qobiliyatidir. Badiiy adabiyot oʻquvchi shaxsda ana shu fazilatlarni shakllantirishda muhim taʼsir kuchiga ega. Adabiy asarlar orqali inson tili boyiydi, fikrlash doirasi kengayadi, ohang, intonatsiya va ifoda madaniyati takomillashadi. Shu boisdan, badiiy adabiyot taʼlim jarayonida nafaqat estetik, balki taʼlimiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Notiqlik madaniyati va badiiy adabiyotning taʼlimiy-tarbiyaviy roli turli davrlarda va ilmiy maktablarda izchil oʻrganilgan. Qadimiy Yunoniston mutafakkirlari Aristotel, Sitsiron, Platon nutqning mantiqiy tuzilishi va auditoriyaga taʼsir qilish mexanizmlarini tadqiq qilgan. Sharq adabiyotida Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Koykovus kabi mutafakkirlar nutqning axloqiy, maʼnaviy va estetik jihatlarini oʻrganish orqali badiiy soʻzning tarbiyaviy ahamiyatini nazariy asoslab bergan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda N.Bekmirzayev, R.Jumaniyozov, O.Eshembetov, N. Matyazova va boshqa mutaxassislar tomonidan notiqlik madaniyati kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, oʻqituvchi nutqining aniqligi, intonatsiyaviy ifodaliligi va mantiqiy izchilligi oʻquvchilar va talabalarda diqqat, tafakkur, motivatsiya va til madaniyati rivojlanishiga bevosita taʼsir qilishi isbotlangan. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, badiiy adabiyot oʻquvchida kognitiv, kommunikativ, emotsional va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, oʻqituvchi nutq madaniyati bilan oʻquvchi nutqiy rivojlanishi oʻrtasida yuqori korrelyatsiya mavjudligi qayd etilgan. Ushbu maqolada esa badiiy adabiyot nafaqat estetik didni, balki til madaniyati va ijtimoiy-axloqiy qarashlarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish nazariyalari hamda badiiy matnni idrok etish

psixologiyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: Nazariy tahlil – badiiy adabiyot, nutq madaniyati va notiqlik bo'yicha ilmiy manbalar o'rganildi. Pedagogik kuzatish – o'quv jarayonida badiiy matndan foydalanish va talabalar nutqiy faolligi kuzatildi. Metodik tahlil – ifodali o'qish, qayta hikoyalash, munozara kabi mashg'ulotlarning notiqlikka ta'siri baholandi. Umumlashtirish – kuzatuv va tahlil natijalari asosida badiiy adabiyotning notiqlik madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni bo'yicha xulosalar shakllantirildi. Ushbu metodlar badiiy adabiyotning ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda notiqlik madaniyatini rivojlantiruvchi samarali vosita ekanligini ilmiy asoslashga imkon berdi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Badiiy asarlar tili umumxalq tilidan uzoqlashmagan, jonli muloqot vositasining sayqallangan ko'rinishi bo'lib, unda milliy tafakkur, madaniyat va so'z san'ati mujassamlanadi. Asarlarni o'qish orqali o'quvchi nafaqat mazmunni, balki so'z ohangini, ma'no qatlamlarini, ifoda uslubini his etishni o'rganadi. Shu tariqa, u o'z nutqida badiiylilik, obrazlilik va ta'sirchanlik elementlarini qo'llashni boshlaydi. Masalan, Said Ahmar asarlaridagi obrazli so'zlar, Odil Yoqubov romanlaridagi ohangdor ifodalar, O'tkir Hoshimov ijodidagi tarif-u tavsiflar yoki Pirimqul Qodirovning nasriy tili notiqlik san'atining mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Nutq so'zlash jarayonida eng ko'p yuzaga keladigan muammolardan biri parazit pauzalar (hmm, aaa, haligi, unaqa), bir so'zni qayta-qayta takrorlash, chet tilidan kirib kelgan jumladan foydalanish. Sabab esa yagona: so'z boyligining yetishmasligi, natijada sinonim yoki ma'nodoshlik, tasviriy ifodalarni qo'llay olmaslik, badiiy o'xshatishlarni mazmunan matnga singdira bilmaslikdir. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida ham ayni shu masalaga – so'zlarni yod olish hamda ma'nosini anglashga jiddiy e'tibor qaratiladi. Ko'rinadiki, inson qay bir tilda irod etmasin talaffuz birliklariga ega bo'lmasa, ravonlikka erisha olmaydi.

O'zbek tilida yuqorida keltirilgan masalani bartaraf qilish uchun eng to'g'ri yo'l, albatta, badiiy adabiyot bilan muntazam do'st tutinishdir. "Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so'zning shakl hamda ma'no munosabatiga ko'ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funkciyalarga egadir" [8. 23 b.]. Aksariyat kishilar juda ko'p sohaviy kitoblarni

o'qib, shaxsiy yoki kasbiy rivojlanishga erishayotganlari ham haqiqat. Ammo maqolada nazarda tutilayotgan jihat badiiy asar mutoalasi orqali notiqlik san'atiga ham tafakkur, ham talaffuz nuqti nazaridan erishishni taqozo qiladi. Chunki, bu turdagi adabiyotlarda juda ko'p ma'nodorliklar, o'xshatishlar, badiiy qochirimlar, voqelik mavjud va natijada ifoda boyligi o'z-o'zidan oshib boradi. Ta'limda bu orqali o'quvchi yoki talabalarga mavzuni aniq, tushunarli, turli o'xshatishlar orqali yana ham qiziqarliroq yetkazib berish imkoni ortadi. "O'qituvchining nutqi uning kasbiy saviyasi, ma'naviy kamoloti va shaxsiy madaniyatining ko'zgusidir [2. 124 b.]. Ko'rinadiki, har qanday turdagi ta'lim muassasalarida birinchi navbatda pedagoglar, izchil davomli ravishda o'quvchi yoki talabalar uchun badiiy asar mutolaasini doimiy yo'lga qo'yish ham shaxsiy, ham kasbiy yuksalishni ta'minlaydi.

Ststistik ma'lumotlarga qaraganda sekin rivojlantirishni istagan inson bir kunda 30 bet kitob o'qishi lozimligi keltirilgan. Texnologiya kun sayin ravnaq topayotgan bir paytda esa har kim ham bunga erisha olmayapdi. Vaziyatni tizimli yo'lga qo'yish uchun, boshlanishiga kunning uch qismida: ertalab, tush payti va kechqurun 10-15 daqiqadan badiiy asar mutalaasiga vaqt ajratish yetarli. Natijada bir kunda 20-30 bet, 10 kunda 200-300 sahifadan iborat adabiyotlarni, bir oyda 2 yoki 3 kitobni o'qib tugallash mumkin degani. Bir yil mobaynida shu talqin davom etgan shaxs 30 dan ortiq kitob o'qiy oladi. Ushbu tadqiqot boshqa sohalardan ko'ra ko'proq pedagog kadrlarni yetkazib chiqaruvchi OTM uchun ahamiyatlidir. Sababi, "nutqi ravon, so'z madaniyatiga ega, ma'naviy barkamol o'qituvchi bugungi ta'lim-tarbiya tizimining tayanchidir" [2. 125 b.].

Zamonaviy notiqlik mahorati kurslarida so'zlovchining ovoz va talaffuz imkoniyatlarini oshirishda aynan badiiy adabiyotlar birlamchilik kasb etadi. Xususan, qalam mashqlari (qalamni tepa va pastki tishlar orasiga joylashtir), yong'oq mashqlari (og'iz bo'shlig'iga hajmi mos kelgan yong'oqlarni ikki lo'njga joylashtirish) orqali bir kunda ikki-uch sahifa ovoz chiqarib kitob o'qish tovushlarni to'liq chiqishida, so'zlash paytida mushaklarning to'g'ri harakatini ta'minlashda yordam beradi. Ushbu jarayonni muntazam ravishda davom ettirish, vaziyatdan kelib chiqqan holda vaqtni hamda hajmni ko'paytirib borish ko'zlangan natijaga erishishni ta'minlaydi. Yana bir qator muammolar borki, barchasining samarali

ychimi aynan shu kabi mashqlar orqali topilishi amaliyotda isbotlangan. Masalan, juda tez gapiradigan yoki harflarni bir-biriga “yedirib yuboradigan” shaxslar uchun bo‘g‘inlab va ovoz chiqarib kitob o‘qish mashqi nihoyatda foydali. O‘z fikrini boshqalarga ravon yetkazishda qiynaladigan yoki so‘zlash jarayonida noo‘rin to‘xtalishlarga duch keladiganlar uchun esa o‘qigan voqeliklarini qayta hikoya qilib berish tavsiya etiladi. Nutqning ohangdorligini oshirish, bir xil ohang qolipiga tushib qolmaslik uchun badiiy asar qahramonlarining xarakteriga mos ravishda ovoz chiqarib o‘qish, ularning kayfiyati, ruhiy holati va vaziyatiga qarab intonatsiyani o‘zgartirib borish yuqori samara beradi. Bu mashqlar nutq jarayonini jonlantirib, tinglovchi e‘tiborini ushlab turishda samarali ekani amaliyotda isbotlangan.

Umuman olganda, ushbu mashqlar nafaqat nutqdagi texnik kamchiliklarni bartaraf etadi, balki notiqlik madaniyatining muhim jihatlari – aniq talaffuz, mantiqiy ketma-ketlik, emotsional ifoda va ohangdorlikni shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois muntazam mashq qilish nutq sifatining izchil yaxshilanishiga xizmat qiladi. Badiiy matnlar nafaqat til boyligini oshirish, balki fikrni mantiqan izchil ifodalash, emosional va estetik didni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. “...pedagogik mahorat va adabiy nutq madaniyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik zamonaviy o‘qituvchining kasbiy qiyofasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi” [5. 648 b.]. O‘qituvchi dars jarayonida asar mazmunini talabalarga yetkazishda bir qancha metodik yondashuvlardan foydalanadi. Birinchidan, talabalarga adabiy obrazlar va so‘zlar asosida nutq tuzish mashqlari tashkil etiladi. Bu jarayonda ular til va fikrni uyg‘unlashtirishni o‘rganadi, so‘z boyligini amaliy qo‘llash orqali nutqiy ifodalilikni oshiradi. Ikkinchidan, ifodali o‘qish, qayta hikoyalash, bahs-munozara kabi faol metodlar yordamida notiqlik mahorati rag‘batlantiriladi. Bu esa nafaqat nutq texnikasini rivojlantiradi, balki auditoriya bilan muloqot qila olish, fikrni aniq yetkazish qobiliyatini mustahkamlaydi. Shuningdek, adabiy personajlarning nutq madaniyatini tahlil qilish orqali axloqiy-estetik qarashlar shakllantiradi. Talabalar asar qahramonlarining so‘zlash uslubini, nutqdagi etik va madaniy jihatlarni kuzatib, o‘z nutq madaniyatlarini boyitadi. Bu yondashuv shaxsiy tarbiya va ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Natijada, badiiy asarlardan pedagogik jarayonda foydalanish, talabalarning til va nutq madaniyatini shakllantirish bilan birga, ularni estetik tafakkur, axloqiy-ijtimoiy qarashlar va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv ta'lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va chuqur pedagogik ahamiyatga ega faoliyatga aylantiradi.

Muntazam va tizimli badiiy asarlarni o'qish talabaning ichki dunyosini boyitadi, uning hissiy sezgirligini rivojlantiradi va til resurslarini chuqurroq anglash qobiliyatini oshiradi. Shu bois, har bir pedagogning vazifasi – o'quvchilarda badiiy so'zga hurmat va qiziqish uyg'otish, ularni ifodali va mantiqiy nutq madaniyati sari yetaklashdir. Bu orqali talaba nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki nutqini mantiqan tuzish, fikrini aniq yetkazish va emotsional jihatdan ta'sirchan bo'lish ko'nikmalarini egallaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qish madaniyati rivojlangan shaxs nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini erkin ifodalashga, muloqot jarayonida ishtirok etishga va estetik-axloqiy qadriyatlarni anglashga tayyor bo'ladi. Shu tariqa, badiiy o'qish nafaqat lingvistik jihatdan, balki shaxsni tarbiyalash, uning notiqlik salohiyatini oshirish jarayonida ham beqiyos vosita hisoblanadi.

XULOSA

Badiiy adabiyot notiqlik madaniyatini rivojlantirishda o'ziga xos ta'limiy-tarbiyaviy vositadir. U inson nutqining estetik, mantiqiy va ma'naviy sifatlarini boyitadi, shaxsda fikrni aniq va ta'sirchan ifodalash malakasini shakllantiradi. Pedagogik jarayonda badiiy asarlardan maqsadli foydalanish, o'qish madaniyatini rivojlantirish hamda nutqiy mashqlarni tizimli tashkil etish orqali o'quvchi va talabalarni notiqlik san'atiga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimova M. O'qituvchi nutq madaniyati. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies, 2022. 61-68 b.
2. Jumaniyozov R. O'qituvchilarning nutq madaniyati va ma'naviy tarbiyasini rivojlantirishning metodikalari, usullari va vositalari. Republican scientific and practical conference "introduction of socio-emotional education methods in general secondary educational institutions: problems and solutions, 2025. 124-130 b.
3. Matyazova N. Pedagogik mahorat va adabiy nutq madaniyatining o'zaro bog'likligi. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. 646-651 bet.

4. Mo'minova T. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy nutq masalalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 2023. 513-519 bet.
5. Eshimbetov B. O'qituvchilarning bog'lanishli nutqini matn vositasida shakllantirish metodlari. *Modern science and research*. 2025. 1756-1759 b.
6. Qodirov A. Adabiyotshunoslikda badiiy asar tili va badiiy nutq uslubi. *Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya nomli ilmiy-amaliy konferensiya*. 31-38 b.